

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗИRLIGI

Ro'yxatga olindi

Nr.

№02-

2024-yil

“*27-dekabr*”

485

- sonli buyrug'i bilan

tasdiqlangan.



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil
“*27-dekabr*” dagi
485 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

“BOJXONA ISHI”

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'limga yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqiqashiruvchi kengashining
2024-yil 24.12. —dagi 12 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.*

Tuzuvchilar: “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov.

“Oliy ta'limgining normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlari to'qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.

“Pedagogik faoliyatda raqamlar kompetensiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, p.f.b., PhD Sh.Adashboyev, p.f.b., PhD A.Obidov. “Ilmiy va innovation faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov p.f.b., PhD N.Xaqnazarov.

“Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.b., PhD I.Eshmamatov, R.Dj.Ishmuxammedov, A.Turayev, A.Abduraxmonov.

“Ta'limg sifatini ta'minlashda baholash metodikalari” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov.

“Bojxona ishining dolzorb muammolari” moduli: i.f.d., dots. Sh.U.Azizov, i.f.b.f.d., PhD A.Nazarov.

“Zamonaviy bojxona ishini tashkil etish” moduli: i.f.d., prof. Sh.O'.Azizov, i.f.b.f.d., dots.U.Nurmatov.

Taqrizchilar: TDIU i.f.d., prof. U.V. Gafurov, i.f.d., prof. D.S. Qosimova.

Xorijiy ekspert: Sh.Yeraliyev. Shvetsiya Lunda universiteti. I.f.b.f.d.

Hamkor tashkilotlar: O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi

O'quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining qarori bilan tasdigga taysiya qilingan (2024-yil 29.11. —dagi 14 -sonli bayonnomasi).

Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta'lim to'g'risida” Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchи navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-228-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4996-son qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarini pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta'limgining normativ-huquqiy asoslari bo'yicha ta'limg-tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda

tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, bojxona ishinidagi dolzarb muammolarini tahlil etish va ularni yechimini topish, zamонавиъи bojxona ishini tashkil etish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modular mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qashuvining oldini olish.

- 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamlı kompetensiyalar.
- 1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.5. Pedagogning kashiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

- 1.5. Pedagogning kasbyi kompetensiyalarini rivojlanishini.
- 1.6. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari.
- 1.7. Boixona ishining dolzarb muammolari.

1.7. Bojxona ishining dozlarini muadil etish.
1.8. Zamonaviy bojxona ishini tashkil etish.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oly ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:
“Bojxona ishi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;
- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“Bojxona ishi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

4

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lislari talab etiladi:

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
 - O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonunlarini;
 - O‘zbekiston Respublikasining zamонави конституционализмини;
 - aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
 - “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
 - jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
 - “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni;
 - Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
 - Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
 - Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
 - oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
 - ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
 - raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
 - raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
 - raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
 - meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
 - zamонави та’лим тизимда sun’iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
 - ta’limda sun’iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;
 - bilimlarni sinash va baholashning aqlii tizimlarini;
 - jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;

- zamonaviy ta'larning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'larning yoshdag'i ahamiyatini;
 - oliy ta'larning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
 - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pjirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
 - universitetlarning zamonaviy modellarini;
 - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
 - tadbirdorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
 - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
 - innovatsion ta'limga muhitni sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
 - pedagogik texnikaning ásosiy komponentlarini;
 - pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
 - kasbiy kompetetnsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
 - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
 - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
 - ta'limga sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
 - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
 - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
 - O'zbekistonda bojxona ishining vujudga kelishi. Bojxona nazorati shakllarini qo'llash
 - bojxona organlarining tarkibiy tuzilishi, ularning vazifalarini, majburiyatlarini;
 - bojxona organlarining fiskal siyosatdagi o'rmini;
 - bojxonada xavfni boshqarish tizimining vujudga kelishini;
 - bojxona to'lovlarini undirish tamoyillari, ahamiyatli jihatlarini;
 - bojxona ko'rige va uni amalga oshirishning zamonaviy usullarini;
 - jismoniy shaxslar tomonidan tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tish tartiblarini;

- bojxona tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini;
- belgilangan bojxona to'lovlari to'lamasdan tovarlarni olib o'tish normasidan oshgan tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlarini hisoblash mexanizmlarini;
 - og'zaki so'rov, shaxsiy ko'rik, bojxona ko'rige, bojxona ko'zdan kechiruvini;
 - bojxona chegaralarida joylashgan ikki yo'lakli tizimni;
 - O'zbekiston Respublikasida bojxona ishini tashkil etish va yuritishga qo'yilgan talablarni;
 - bojxona ishi jarayonlarini avtomatlashtirishning asosiy maqsad va vazifalarini;
 - bojxona maskanlarining zamonaviy ko'rinishlarini;
 - bojxona organlari mansabдор shaxslarining huquq va majburiyatlar hamda funksional vazifalarini;
 - O'zbekiston Respublikasida zamonaviy bojxona nazoratini tashkil etishda xavfni boshqarish tizimini qo'llashning ahamiyati va bugungi kundagi tahlili, xavfni boshqarish tizimini qo'llash jihatlari, tizimning samaradorlikka ta'siri hamda rivojlanish bosqichlarini;
 - O'zbekiston Respublikasida bojxona auditining mazmun-mohiyati, shakllanishi, uni amaliyotda qo'llashda axborot texnologiyalar, bojxona auditining xususiyatlari hamda bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirishdagi tutgan o'rni;
 - O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida bojxonaga oid xalqaro huquq normalari, ularni qo'llash uslublari, ularning implementatsiyasi hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- "O'zbekiston-2030" strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- O'zbekistonning xalqaro maydonidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
 - yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o'zlashtirish;
 - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'limga tegishli qarorlari asosida ta'limga tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
 - xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish;
 - korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
 - multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
 - masofiviy ta'limga platformalari uchun video kontent yaratish;
 - Internetda mualiflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalananish;
 - raqamli ta'limga resurslari sifatini baholash;

- pedagogik jarayonda sun'iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini ochib berish;
- ta'lif sohasida sun'iy intellektidan foydalanishning afzallikkari va kamchiliklarini aniqlash;
 - OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
 - jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
 - universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
 - tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
 - zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
 - pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
 - pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
 - o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
 - tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
 - kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
 - kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
 - talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
 - talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;
 - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
 - bojaxona organlarining tarkibiy tuzilishi, ularning vazifalari, majburiyatlarini yoritib berish;
 - bojaxona to'lovlari to'lamasdan jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni olib kirishni oldini olish;
 - bojaxona hamrohligida kuzatib borishni amalga oshirish;
 - tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish, axborot olish;
 - yuk kuzatuv hujjalarni tekshirish tartiblaridan foydalanish;
 - bojaxona identifikatsiyalashi va yuzaga keladigan kamchiliklarni hal etish;
 - bojaxona ishini tashkil etish va yuritishga qo'yilgan talablarga rioya etish;
 - zamonaviy bojaxona nazoratini tashkil etishda xavfni boshqarish tizimini qo'llashning ahamiyatini ochib berish va bugungi kundagi tahlilini amalga oshirish, xavfni boshqarish tizimini qo'llash;
 - bojaxonaga oid xalqaro huquqiy normalar asoslarini o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;

- Oliy ta'lif, fan va innovatsiya vazirligining ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lif standartlari, ta'lif yo'nalişlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjalarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an'anaviy va raqamli ta'lilda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
 - mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
 - pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish;
 - raqamli ta'lif resurslaridan foydalanish;
 - meta texnologiyalarni ta'limga samarali integratsiya qilish yo'llaridan foydalanish;
 - ta'lindagi sun'iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
 - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'lif muhitini sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lif sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-teknik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;

- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshirirlari (reproaktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- bojxona ko'rige va uni amalga oshirishning zamonoviy usullaridan foydalanish;
- jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar maqsadini aniqlash;
- bojxona ko'zdan kechiruvini amalga oshirish;
- jismoniy shaxslar tomonidan tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tish tartiblariga rioya etish;
- tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini amalga oshirish;
- bojxona auditining xususiyatlari hamda bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirishdagi tutgan o'rnni yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi bojxona organlaridagi bojxonaga oid xalqaro huquq normalar, ularni qo'llash.uslublaridan fodalanish;
- O'zbekiston Respublikasida bojxona auditining shakllanishini o'rganish, uni amaliyotda qo'llashda axborot texnologiyalarini o'rnni yoritib berish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lif-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lif standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- oliy ta'lif tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashivi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta'lif resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lif resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lif muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarini

amaliyotga tatbiq etish;

- meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limgagi ta'sirini ochib berish;
- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP,Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yoritish;
- talabalarning ta'lifiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- bojxona tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil etish va baholash;
- belgilangan bojxona to'lovleri to'lamasdan tovarlarni olib o'tish normasidan oshgan tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlarini hisoblash mexanizmlarini o'zlashtirish;
- tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;
- zamonaviy bojxonani tashkil etishda bojxona ma'muriyatçiliginiligi ilg'or innovatsion usullarini qo'llash, strategik rejorashtirish va bojxona tartib taomillarini soddalashtirishning yangi tamoyillarini tahlil etish va baholash;
- O'zbekiston Respublikasi bojxona auditining mazmun-mohiyatini yoritib berish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish

shakllari asosida, 144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan kurs tinglovchilariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

“BOJXONA ISHI” YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatlari va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma’naviyatini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari.

Milliy ma’naviyat va qadriyatlar, yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O‘zbekistonning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro maydonidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

1.2. Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish.

